



KUSHON DAVLATINING TARIXDA TUTGAN O'RNI

Uraimjonova Malika Qahramon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti

@malikaurimjonova0109@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7936080>

ARTICLE INFO

Received: 05th May 2023

Accepted: 13th May 2023

Online: 15th May 2023

KEY WORDS

Kushon davlati, Dalvarzin tepa, oromiy yozuvi, madaniy aloqa, diniy qarashlar, geografik joylashuv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Kushon davlatining tarixda tutgan o'rni yuzasidan fikr yuritilgan bo'lib, Kushon davlatining rivojlanishida asos vazifasini bajargan omillar yuzasidan qarashlar mavjud. Shuningdek, maqolada Kushon davlati poytaxti Dalvarzintepa shahri, oromiy yozuvi va shu kabi davlat ahamiyatida muhim sanalgan vositalar xususida qarashlar o'z ifodasini topgan. Maqolada Kushon davlatining geografik tuzilishi, hukmdorlarning davlat miqyosidagi islohotlari, obodonchilik ishlari hamda elchilik ishlari ham qalamga olingan.

Bugungi kunda tarix silsilasi natijasida yo'qolib ketgan yoki yo'qolish arafasida turgan tarixiy davlatlar izlarini topish, ularni har tomonlama tadqiq etish rivojlanayotgan va yangilanayotgan O'zbekiston farzdandlarining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Haqiqatdan ham, o'tmishda hukmronlik qilgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari, ularning harbiy yurish va geografik jihatdan tuzilishini tadqiq qilish masalasi olis o'tmishga bo'lgan hurmat, qolaversa, ajdodlar oldida turgan mas'uliyat bilan tengdir. Kushon podsholigining tashkil topish sabab va oqibatlari qolaversa ushbu davlatning tarix sahnasida tutgan o'rni va ahamiyati kishilarning e'tiborini tortmay qolmaydi. Kushon podsholigining tashkil etilishi barobarida mavjud davlat sifatida dunyo hamjamiyatida geografik jihatdan bo'linishi, davlatlararo iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari ham bugungi kunda o'z samarasini berib kelmoqda. Kushon davlati asoschilarining davlat tuzish barobarida qo'shni podshohlklarga ham ko'rsatgan ta'siri geografik hududning ham imkon qadar cho'zilib borilgan ekanligi bilan xarakterlanadi. Bir so'z bilan aytganda Kushon podshohligi tasarrufiga kirgan hududlar: O'zbekiston, hozirgi Afg'oniston (Peshovar), Kashmir hududlari, Hindiston, Xo'tan va boshqa hududlar kesimi bilan baholanadi.

"Olima G.A. Pugachenkovaning fikricha, Kushonlarning ilk poytaxti hozirgi Sho'rchi tumanidagi Dalvarzintepa xarobalari o'rnida bo'lgan va bu shahar Xitoy yilnomalarida "Xodzo" nomi bilan ma'lum deb ta'kidlaydi. Dalvarzintepada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan moddiy madaniyat namunalari o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatiga ko'ra Xolchayon, Ayritom, Qoratepa kabi Kushonlar davri yodgorliklari namunalaridan qolishmaydi. Bu davrda vohada ikkita yirik markaz mavjud bo'lib, bulardan



biri Amudaryo bo'yidagi Tarimta (Termiz) bo'lsa, ikkinchisi esa Chag'onrut (Surxondaryo) bo'yidagi Dalvarzin shahri bo'lgan"¹. Shuni aytish mumkinki, Kushon davlati ham tarixda o'z o'rnini egallashga muvaffaq bo'lishidan sabab, davlat boshliqlarining turli xil islohotlar, kundalik turmush tarziga kiritilgan yangiliklar, davlat boshqaruv salohiyatining yangicha ko'rinishda olib borilishi bilan bevosita aloqadorlikni tashkil etishi bilan xarakterlanadi. Umumiy qilib olganda, Kushon davlatining tashkil topishi Guyshuan sulolasining aoschilari bilan bo'liqlikni tashkil etib, milodiy I asrda Yuechjilar bilan yuzaga kelgan nizolarning, Guyshuan xonadoni foydasiga hal qilinishi bilan o'ziga xoslikni yuzaga keltirdi. Bunda egallangan va kelgusida egallaniladigan yerlarning kengayib borishi Davlatga asos solish bilan belgilanib, asosan, yunon-Baqtriya davlati hududlari, Qang', Termiz, Peshovar, xorazm, Qashg'ar va boshqa shaharlar bilan bog'liqdir. Shu o'rinda Kushon davlatining tarix sahnasida munosib o'rin egallashi uchun munosib xizmat qilgan Kushon davlatining hukumdorlari o'zlarining jang mahorati, boshqaruv shakli, notiqlik salohiyati bilan bog'liqdir.

Bu borada Kushon davlati hukumdorlari sur'ati tushurilgan yoki ramziy belgilariga ega bo'lgan tangalarning davlat tarkibiga kiruvchi - Yunon-Baqtriya yerlari, Afg'oniston, Hindiston, Parfiya, Xitoy va Rim davlatlarining hududlarida ayni Kushin davlati tanhalarining savdo-sotiqda amalda qo'llanilishi, yoki yozuvlarining tarqalishi dunyo sahnasida Kushin davlatining mavjudligi, rivojlangan ekanlihdan dalolat beruvchi manba vazifasini bajargan.

Bugungi kunda tarixchi olimlarning fikricha, Kushon davlatining tarixda tutgan o'rni yuksak ekanligini isbotlovchi manba sifatida O'rta Osiyo hududida yuzaga kelgan Oromiy yozuvi bilan bog'lashadi. Buning sababi shundaki, davlatning yuksalish darajasi va geosiyosiy darajasi birgina yozuv vositasida ham yaqool namoyon bo'ladi. Buning sababi quyidagicha izohlanadi. Bular:

1. Davlatning tarixiy hujjatlari birxiy yozuv asosida amalga oshirilishi(Oromiy yozuvi) xalqning savodxonlik darajasini oshirishda yoydam beradi. Ichki madaniy aloqalarning ham o'sish sur'atlar elchilik maktublariningni bevosita belgilab beradi hamda rivojlanishida xizmat qiladi;
2. Kushon davlatining rasmiy aloqalarining mavjud bir til vositasida amalga oshirilishi davlatning qo'shmi mamlakatlar bilan uzviy aloqalarini rivojlantirish, qolaversa, mustamlaga tarza boshqaruv ostida bo'lgan hududlarda madaniy aloqalar, elchilk bitimlari davlatning tanilishi, rivojlanishiga xizmat qiladi;
3. Mavjud tilning aholi ehtiyojlari uchun xizmat qilishi bo'lib, bunda diniy e'tiqodning xalq ommasi bilan mutanosibligini ta'minlashda diniy e'tiqodlar ham muhim omillardan biri sanaladi. Bu asosan, savodsiz xalqning diniy e'tiqodlarni tushunish darajasi, anglash va amaliy jihatdan qo'llash ehtimoliyligi bilan bog'liqlikni tashkil etadi.
4. Ilm-fan va san'atning rivojlanishida umummilliy vosita sifatida qo'llanilishi bilan belgilaniladi. Ushbu holat asosan, Kudhon davlatida yaratilgan asarlarning dunyoning boshqa davlatlariga yetib borishi, tarqalishi qolaversa, me'moriy obidalar, haykaltaroshlik san'ati kabilarda o'ziga xoslikni tashkil etadi. Shuningdek, yozuv vositasining maxsus qo'llanmalar, ilmiy asarlar paydo bo'lishida ham o'rni va ahamiyati katta ekanligini sezish mumkin. Shuning uchun ham Kushin davlatining tarix sahnasida tutgan o'rni yuzasidan geografik

¹ To'rayeva Charos Qurbonmurot qizi. "Kushon davlatining ilk poytaxti Dalvarzintepa tarixi" maqola. International Journal of Education, Social Science & Humanities - 2023



hududning keng ekanligi, hududlararo islohotlarning qpllanilishi va yozuv vositalari bilan belgilash mumkin. “Kushon davlatida yashagan xalqlarning o‘zaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari tufayli O‘rta Osiyoda qadimgi Oromiy yozuvi keng tarqaladi. Bu yozuv G‘arboy Osiyoda paydo bo‘lib, alifboga asoslanganligi tufayli o‘zlashtirish ancha oson bo‘lgan. Qadimgi Termiz yodgirliklarini o‘rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan”².

Kushon davlatining tarixda tutgan o‘rni harbiy yurishlar, geografik bo‘linishlar, me‘moriy obidalarning strukturaviy jihatdan qurilishi bilan bog‘liqdir. Bunda asosan, Kushon davlatining poytaxt shaharlari va ushbu hududlarning ijtimoiy alqalarda tutgan o‘rni bilan ham bog‘liqlikni tashkil etadi. Bugungi kunda olimlarning ilmiy izlanishlari natijalarida Kushon davlatining poytaxti bo‘lgan Dalvarzintepa hududlarida arxeologik qazishma ishlarining olib borilishi natijasida saroy qoldiqlari, shuningdek, ma‘muriy binolar, qal‘a tuzilishi kabilar o‘rganilib, bugungi kunda tarixiy izlanishlar, ekspeditsiyaga qiziquvchilar uchun taqdim etilmoqda. Bu ham Kushon davlatining dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni va rolini belgilashda muhim bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Kushon davlati hududi shuningdek, poytaxt shaharlarning tuzilish shakli bugungi kun me‘morchilik san‘ati bilan aloqadorlikni yuzaga keltirib, ayni poytaxt sanalgan Dalvarzintepa shaxrining mehmonxona, qabulxona kabi qismlaridagi binolarda Rim, Xitoy, Parfiya meg‘morchilik uslublarining ham namoyish etilishi kuzatiladi. “Bag‘rikenglik g‘oyalarini hayotga tadbiiq etish uzoq moziyga borib taqaladi. Ajdodlarimiz amal qilgan diniy bag‘rikenglik g‘oyalari tarixning har bir davrida ijtimoiy, siyosiy va ma‘naviy hayotni ajralmas qismiga aylangan bo‘lsada, tarixning ma‘lum davrlarida o‘zining eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarilgan. Kushon podsholigi hukm surgan tarixiy davr fikrimizga yorqin misoldir”³. Kushon davlatining hukumdorlari davlatning hududiy jihatdan kengayib borishi Kushon imperiyasiga aylanishida vosita bo‘lib xizmat qilgan. Kushon davlati hukumdorlari:

- Kudzula Kadfiz;
- Vima Kadfiz;
- Kanishka va boshqalar.

Kushon davlati yuksalib, geografik jihatdan hududlari kengayib borgani sari davlatning iqtisodiy ham ma‘naviy jihatdan o‘sish sur‘atlari ham jadal ravishda yuksala borgan. Bu holatlar ayniqsa, Vima Kadfiz, Kanishka kabi hukumdorlarning davlat miqyosida amalga oshirgan islohotlari bilan, shuningdek, ushbu islohotlarda Kushonlar tarkibiga kirgan hududlarda kuzatilgan munosabat bilan ham xarakterlanadi. “Surxandaryo hududida Kushon davriga oid arxiologik yodgorliklar juda ko‘p va xilma-hildir Axomoniylar va Yunon - Baqtriya davridan bu yerda hozircha 40 manzil shahar ma‘lum bo‘lgan bo‘lsa, Kushon davriga oid 120 dan ortiq shahar va qishloq aniqlandi”⁴.

² Sagdullayev A.S, V.A Kastetskiy. Tarix. Qadimgi dunyo. 6 - sinf o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent: “Yangi yo‘l poligraf servis” - 2013

³ Bozorova Sevaraxln Qobiljonovna. “Kushon podsholigi davrida diniy bag‘rikenglik” maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences - 2021

⁴ Mamasidikov Abdug‘ani. “Kushon davlati davrining madaniyati” maqola. Eurasian journal of academic research innovative academy research support center - 2022



References:

1. To'rayeva Charos Qurbonmurot qizi. "Kushon davlatining ilk poytaxti Dalvarzintepa tarixi" maqola. International Journal of Education, Social Science & Humanities - 2023
2. Sagdullayev A.S, V.A Kastetskiy. Tarix. Qadimgi dunyo. 6 - sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent: "Yangi yo'l poligraf servis" - 2013
3. Bozorova Sevaraxln Qobiljonovna. "Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik" maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences - 2021
4. Mamasidikov Abdug'ani. "Kushon davlati davrining madaniyati" maqola. Eurasian journal of academic research innovative academy research support center - 2022